



«TIBBIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASI: MEGATRENDLAR»

*mavzusidagi XVII xalqaro
o'quv-uslubiy konferensiya
materiallar tўplami*

Toshkent-2021, 29-30 dekabr



Konferensiya tashkilotchilari:

TTA rektori Shadmanov A.K., O'quv ishlar bo'yicha prorektor Boymuradov Sh.A., O'quv – uslubiy bo'lim boshlig'i Massavirov Sh.Sh., t.f.n., dotsent Avezova G.S.

Toshkent tibbiyot akademiyasida **“Tibbiy ta'lim transformatsiyasi: megatrentlar”** (“Transformatsiya meditsinskogo obrazovaniya: megatrendy”) mavzusidagi halqaro o'quv-uslubiy tibbiyot konferensiyasi o'tkazildi.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya deyarli har qanday faoliyat sohasiga taalluqlidir. Zamonaviy texnologiyalar an'anaviy ta'lim bilan o'qitishni amalga oshirib bo'lmaydigan usullardan foydalanishga imkon berayotgani, ya'ni axborot texnologiyalar tobora o'sib kelayotgan avlod uchun muhim tafakkur vositasiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli Farmoni qabul qilingan, bo'lib Konsepsiyada oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish vazifalari belgilangan.

Toshkent tibbiyot akademiyasida 29-30 dekabr kunlari halqaro o'quv-uslubiy tibbiyot konferensiyasi ham aynan shunday dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lib, “..muallim, muallim, muallim,...tibbiyot, tibbiyot, tibbiyot” shiori ostida o'tmoqda. Konferensiyada Mamlakatimizdagi 11 ta tibbiyot oliygohlari va ularning filiallaridan professor-o'qituvchilar ishtirok etdilar. Dunyoning yetakchi tibbiyot universitetlari xususan, Litfa, Rossiya, Finlyandiya professorlari o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Halqaro o'quv-uslubiy konferensiyada oliy tibbiy ta'limning rivojlanish tendensiyasida raqamlashtirish, kredit –modul tizimi hamda simulyatsion o'qitishning o'rniga bag'ishlangan muammolar va ularning yechimi masalalari ko'rib chiqildi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining ustuvor vazifasi talabalarga bilim berish jarayonida ularning kasbiy tayergarligini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish, ularda zarur bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalangan holda shakllantirishdan iborat. Hozirgi globallashuv jarayonining ilmiy-texnikaviy sohada o'zining ta'sirini ko'rsatishi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal sur'atda amaliyotga joriy etilishi, mamlakatimizda tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimining sifatini yanada oshirishga turtki bo'lmoqda. Bu esa, zamonaviy o'qitish texnologiyalariga ilmiy jihatdan metodik yondashuvlar talabalarning kasbiy mahorati, dunyoqarashini jadal shakllantirdi.

Ushbu to'plamda tibbiy ta'limda raqamlashtirish, ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, tibbiy ta'limdagi muammolar, masofaviy ta'lim, uning afzalliklari va muammoli jihatlari, shuningdek tibbiyotning dolzarb muamomalariga bag'ishlangan materiallar keltirilgan.

Keltirilgan dalillar, ixtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas'uldir.



I. TIBBIY TA'LIM



НЕОНАТОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА СИМУЛЯЦИОН ТАЪЛИМНИНГ АХАМИЯТИ

Исканова Г.Х., Каримжонов И.А., Ташкенбаева У.А., Эгамова С.Ш.
Тошкент тиббиёт академияси. Тошкент

Исканова Гулшан Холдоровна- ТТА 2-сон болалар касалликлари кафедраси доценти, т.ф.н.

Каримжонов Илхом Асомович- ТТА 2-сон болалар касалликлари кафедраси мудир, профессор, т.ф.д.

Ташкенбаева Умида Алишеровна-ТТА хузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази директори, профессор, т.ф.д.

Эгамова Сайёра Шавкатовна-ТТА - 1 сон ички касалликлар пропедевтикаси кафедраси ассистенти

Олий таълим даражасини сифат жиҳатидан ошириш ва тубдан такомиллаштириш, олий таълим муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва модернизация қилиш, замонавий ўқув-илмий лабораториялари, ахборот-коммуникация технологиялари билан жиҳозлаш бўйича Олий таълим тизимини 2017 - 2021 йилларда комплекс ривожлантириш дастури қарор билан тасдиқланди. 2017 йил 27 июль ПҚ-3151-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги қарори қабул қилинди. 2017 йил 20 июндаги «Ўзбекистон Республикаси аҳолисига 2017-2021 йилларда ихтисослаштирилган тиббий ёрдам кўрсатишни янада ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ 3171-сонли қарорида «Тошкент тиббиёт академияси негизида ўқув-симуляцион лабораториялари ташкил этиш» банди ижросини таъминлаш мақсадида ўқув-симуляцион лаборатория очилди [1,2,3,4,5,6]. Ўқув жараёнига муляжлардан фойдаланишни киритишда унинг бошқарувчиси бўлган педагог кўзлаган мақсадга эришишнинг бош қафолатчиси бўлади. Муляжлардан фойдаланишни таълим тизимига жорий этишда унинг бошқарувчиси бўлмиш педагогнинг тайёргарлик даражасини биринчи ўринга қўйиш лозим. "Неонатология" фанини ўқитишда муляжлардан фойдаланиш орқали ўқув жараёнларида таълим-тарбия мазмуни, метод ва воситаларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш ўзида мужассамлаштирадиган ўқув жараёндир. Ўз мутахассислиги бўйича ўзлаштирган билимидан қатъий назар, педагог таълим жараёнига қадам кўяр экан, педагогик - психологик билимлар, педагогик технологиялар, педагогик маҳорат, педагогик маданият ва ўқитиш-ўргатиш услублари йиғиндиси бўлган зарур педагогик кўникмаларни эгаллаган бўлиши керак.

Ўзбекистон Республикасида таълим соҳасида рўй бераётган туб янгиланишлар ҳар бир таълим муассасасида ўқув жараёни методик таъминотини ривожлантиришни талаб этади. Дарс жараёнини ташкил этишда компьютердан фойдаланиш ўқитувчи ва талабаларга интерфаол ўқув қўлланмалари билан боғлиқ бўлган янгидан - янги ўзига хос қулайликлар яратади. Компьютерни бошқа ўқитиш воситалари масалан, проектор, электрон доскалар билан оператив қўшилиши, кўргазмали куроллардан фойдаланиб маълумот бериш ҳажмини оширади ва бу билан ўқитувчи учун дарс вақтидан унумли фойдаланишга имконият яратади.

Toshkent tibbiyot akademiyasining «Tibbiy ta'lim transformatsiyasi: megatrentlar» mavzusidagi halqaro konferensiya materiallar to'plami, 2021 yil 29-30 dekabr

ta'limda raqamlashtirishni amalga oshirish tizim faoliyatini tubdan o'zgartirish jarayonlarini belgilab beradigan muhim mezon hisoblanib, faoliyat tezkorligini ta'minlab beradi. Zero, hozirgi globallashtirish davrida tibbiy ta'limni rivojlantirish, iste'dodni rag'batlantirish, bilim egallash sharoitini yaxshilash davlatlar siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu raqamlashtirish borasidagi islohatlar samarasini namoyon qiladi. Shu nuqtai nazardan raqamlashtirish dolzarbligini o'rganish quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, hozirgi globallashtirish davrida inson salomatligini saqlashga doir jarayonlarni tizimlashtirish, talablar belgilashda muhim o'zgarishlar amalga oshmoqda. Umuman, jahon andozalari asosida sog'liqni saqlash tizimini mukammal tartibga solishni zamonaviy usul – raqamlashtirish asosida tashkil qilish hamda kasbiy nuqtai nazardan o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Ikkinchidan, mamlakat kelajagi sifatli tibbiy kadrlar tayyorlash darajasiga bevosita bog'liq bo'lganligidan, unga xos qoidalar hamda raqamlashtirishni joriy qilish, ulardan faoliyatimiz davomida bekamu-ko'st foydalanish, tatbiq etishning dolzarb muammolarini o'rganish, tahlil qilish va yechimini topish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tibbiy ta'lim tizimida pedagogik faoliyat samarasini jadallashtirish uchun raqamlashtirishning zaruriyati pedagoglar malakasini oshirish, ularni kasbiy va intellektual salohiyatni mustahkamlash bo'lib, aholi salomatligini saqlashda zamonaviy bilim va tezkor faoliyatga ega shifokor kadrlar tayyorlash bosqichlarini jadallashtirib beradi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tibbiy ta'lim tizimida raqamlashtirishni keng joriy qilishdan asosiy **maqsad** – birinchidan, jahon miqyosida raqobatbardosh sifatli kadr tayyorlash bo'lsa, ikkinchidan aholimiz salomatligiga daxl qiluvchi kasalliklarga munosib davolash uslublarini topish, ularning davolanish choralarini yengillashtirish, tizim tezkorligini ta'minlashdir. Albatta, bunda raqamlashtirish xususiyatlari va ahamiyatini aniqlash, shu asosda faoliyatni tartibga solishning maqsad va asoslarini o'rganish, raqamlashtirishning qoidalariga rioya etish, uni mukammal bilishni joriy qilishda ongli va faol ishtirok etish asosiy mexanizm hisoblanadi. Raqamlashtirishning **vazifalari** deganda fikrimizcha, avvalo tibbiy ta'lim sifatini oshirish, respublika aholisining sog'lig'ini saqlash ishlarida yangi chora-tadbirlar takomilini ko'rsatishdan iborat deyish mumkin.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Bugungi murakkab sharoitda yurtimizda boshlangan keng qamrovli islohotlar, yangi O'zbekistonni barpo etish sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo'lishini ta'minlash eng asosiy vazifamiz bo'lishi shart”(O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2020)

OLIV TIBBIY TA'LIMNING RIVOJLANISHIDA AN'ANAVIY O'QUV JARAYONING YUTUQLARI.

Sayfutdinova Zuhra Abdurashid qizi

Assistent, Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrası, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

Ta'lim-tarbiya, bilim olishga intilish, tafakkur rivoji uchun izlanish bo'lmaganida insoniyat o'zining hozirgi taraqqiyotiga erisha olmagan bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. . An'anaviy o'quv jarayonida. o'qituvchi va talaba faoliyatining turlari, usullari, texnikasi tarbiyaviy harakatlar deb hisoblanadi: hikoya, suhbat, vizualizatsiya, kitob o'qish, amaliy faoliyat va boshqalar. Ushbu usullarning to'plami ta'lim jarayonida qo'llaniladigan bilim manbalariga muvofiq og'zaki, vizual va amaliy bo'linadi. Butun dunyo bo'ylab tarqalgan COVID-19 pandemiyasi barcha davlatlarda ta'limni onlayn formatga o'tkazdi. bu esa o'z navbatida talabalar bilan ustozlarni yelkama-yelka o'qish va izlanishlar olib borishga to'sqinlik qila boshladi. Turli xil fan va ta'lim sohalari o'z navbatida bu formatdan foydalanib kelishmoqda. Bu formatning yutuqlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak talabalar va ustozlar orasida axborot almashinuvi jadal sur'atda rivojlantirdi. Izlanuvchilar orasida kommunikativlik o'sib kelmoqda. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi sifati har qanday davlatning zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omil sanaladi. An'anaviy o'qitish tizimida o'qituvchi va talabalar orasida erkin muloqot almashinuviga keng yo'l ochib beradi. Hozirgi kunda Toshkent tibbiyot akademiyasida klinik fanlarda talabalar orasida amaliy ko'nikmalar va bemorlar kuratsiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Talabalar amaliy darslarda ustozlar bilan bir qatorda bemorlar kuzatuvini va kasallik tarixini yuritishni o'zlashtirib kelmoqdalar. Fan, texnika va texnologiyaning tobora taraqqiy etib borayotgani ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim talabalar uchun informativ, qiziqarli va maroqli bo'lsa, kutilayotgan o'qitish maqsadlariga erishish mumkin. Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bunday kelib chiqqan holda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi fanining maqsadi bo'lajak mutaxassislarining ixtisoslik fanlaridan ta'lim berish metodikasi, oliy ta'lim tizimida o'qitish shakllari hamda o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. An'anaviy o'quv jarayonida juda ko'plab afzalliklar bor .

Toshkent tibbiyot akademiyasining Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasida tashkil etilgan o'quv laboratoriyasi bu fikrimizga yaqqol dalil xisoblanadi. Bu o'quv laboratoriyamizda barcha yo'nalish talabalarining klinik laboratoriya, klinik laborator diagnostika xamda sitologik tashxisga kirish fanlaridan dars o'tib shu bilan birgalikda shu fanlarning amaliy ko'nikmalari o'qituvchi guruh talabalarini bilan birgalikda olib boradi.

Har bir talaba bu o'quv laboratoriyamizda individual ravishda umumiy klinik tahlillarni olib borishadi. O'quv jarayoniga maxsus yondashuv natijasida talabalar o'zlariga bo'lgan ishonchning ortishiga va keyinchalik o'z kasbiy faoliyatlarini olib borishlarida katta ko'mak beradi. Biz pedagoglar ta'lim sifatini yaxshilashimiz va xalqimizga yetuk malakali kadrlarni tayyorlash bu oldimizdagi katta ma'suliyatimizdir. Shuning navbatida an'anaviy o'quv jarayonini keng tadbiq qilish va uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishishimiz darkor.

Bu esa o'z navbatida talabalarni bu fanlarning o'zlashtirishi qobiliyatini yana oshiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, an'anaviy o'quv jarayoni talabalarni bu fanlarning o'zlashtirishi qobiliyatini yanada oshiradi. Shuni takidlab o'tish joizki an'anaviy o'quv jarayonida tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'zining ajralmas qismiga ega.

Musaeva N.B. INTERAKTIV DARS “OLDINDAN O‘YLAGAN XATOLIKLAR MA’LUMOTI”.....	104
Niyozova N. TIBBIY TA'LIMDA RAQAMLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	106
Khashimov F.F., Mirodilova F.B., Umarov J.M., Tojimurodov Kh.A., Abboskhanova F.Kh. TEACHING IN DERMATOVENEROLOGY INNOVATIVE APPROACH.....	107
Azizova F.H., Otajonova A.N., Ishandjanova S.X., Mahmudova Sh.I., Sobirova. R. GISTOLOGIYA, SITOLOGIYA VA EMBRIOLOGIYA FANINI SAMARALI O‘QITISHDA KENG QAMROVLI INNOVATSION YONDOSHISH.....	108
Zufarov P.S., Saidova Sh.A., Pulatova N.I., Aripjanova Sh.S. SIMULYATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OQITISH, MUAMMOLARNI XAL QILISH YO‘LLARIDAN BIRI SIFATIDA.....	109
Abdujabbarova U., Latipova K. BIOINJENERIYA VA BIONIKANING INSON BIONIK ORGANLARINI YARATIISHDAGI AHAMIYATI.....	110
Артикова Д.М. РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ «ЭНДОКРИНОЛОГИЯ».....	115
Аликулова Д.Я., Хайдарова З.Т. ФАОЛ ТАЪЛИМ, УНИНГ ТАЛАБАЛАР БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	116
Солихов М. У., Турсунова М.У. МАЛАКАВИЙ АМАЛИЁТ ТУШУНЧАСИ.....	118
Ахмедова С.М., Ниёзов Н.Қ., Нортаева Н.А. АНАТОМИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ.....	121
Бобоева З., Бобоева Р. ПАТОФИЗИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ.....	122
Бобоева З. ФУНДАМЕНТАЛ ФАНЛАРДА МУЛТИМЕДИА ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ.....	123
Эрматов Н., Шайхова Г., Абдуллаева Д., Хайитов Ж. КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИНГ АСОСИЙ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ.....	124
Эрматов Н., Абдуллаева Д., Ортиков Б., Бўрибоев Э. ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИДА КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ БЎЙИЧА ЭЪТИБОРГА МОЛИК ЖИХАТЛАР.....	125
Эрматов Н.Ж., Абдуллаева Д., Хақбердиев Х., Камилова А. ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИДА КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ.....	126
Эрматов Н., Шайхова Г., Абдуллаева Д. КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИНИНГ ТАЛАБАЛАР УЧУН АФЗАЛЛИКЛАРИ	127
Эрматов Н., Абдуллаева Д. КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИДА ТАНЛОВ ФАНЛАРИНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ.....	127
Кулдашева Г.Д. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	128
Миршаропов У.М., Ахмедова С.М., Нортаева Н.А. ФУНДАМЕНТАЛ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ЗД АНАТОМИК СТОЛИНИНГ ЎРНИ.....	130
Матназарова Г.С., Мустанов А.Ю., Саидкасимова Н.С. ЭПИДЕМИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕГРИРЛАШГАН НАЗАРИЙ БИЛИМЛАР ВА	130